

JULIAN BARNESNING "OXIRAT HISSI" ASARIDA FALSAFIY IQRORNOMA ROMAN UNSURLARI

Muxlisa Vaxobovna TURSUNOVA

Mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

JULIAN BARNES'S WORK "THE SENSE OF AN ENDING" AS A PHILOSOPHICAL CONFESSIONAL NOVEL

Mukhlisa Vakhobovna TURSUNOVA

Independent researcher

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

«ПРЕДЧУВСТВИЕ КОНЦА» ДЖУЛИАНА БАРНСА КАК ФИЛОСОФСКИЙ ИСПОВЕДАТЕЛЬНЫЙ РОМАН

Мухлиса Вахобовна ТУРСУНОВА

Независимый исследователь

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан mukhlisa.vakhobovna@list.ru

UDC (УО'К, УДК): 8.82. 82-91.

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Tursunova M. V. Julian Barnesning "Oxirat hissi" asarida falsafiy iqrornoma roman unsurlari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild. — № 1 (54). — B. 220-234 .

<https://doi.org/10.36078/1710320512>

Received: January 20, 2024

Accepted: February 17, 2024

Published: February 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy Britaniya adabiyotining eng yirik vakillaridan biri Julian Barnesning "Oxirat hissi" asari postmodernizmga xos iqrornoma roman unsurlari asosida talqin qilingan. Asar voqealari shakliy jihatdan fragmentatsiya holatidagi o'tmish xotiralari va uzviylik mexanizmi ostida shakllanmagan tarix konsepsiyasi orqali yoritilganligi bois undagi postmodernizmga xos xususiyatlarni o'rganishga bag'ishlangan. Asar muallifi Julian Barnes tomonidan roman voqealarini hikoya qilishda qo'llanilgan zaif roviylarning postmodern adabiyotidagi o'ziga xos tomonlari va vazifalari bir necha ilmiy izlanishlarni qiyoslash orqali izohlangan. Tadqiqot ishida asarning bosh qahramoni o'zining ruhiy holatini tiklash maqsadida shaxsiy xotiralarini reflektiv taftish qilganligi va taftish jarayonida tarix mexanizmi hamda vaqt konsepsiyalaridan foydalangan holda ularning ishlash prinsiplarining mohiyatan samarasizligini namoyish etishi misollar orqali ko'rsatib berilgan. Mazmun jihatidan esa asar qahramonining butun umri davomida sodir etgan gunohlarining iqrornomasini tadqiq qilishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Ushbu ilmiy ishda an'anaviy iqrornoma romanlarning tarixiy ildizlari va ularning badiiy o'ziga xosligi nazariy tomondan yoritilgan. Iqrornoma romanlarning postmodern jamiyatlardagi ahamiyatli jihatlari har tomonlama chuqur o'rganilgan. "Oxirat hissi" asarida muallif tomonidan ko'tarilgan bir necha dolzarb masalalar tanqidiy iqrornoma tahlil metodi orqali ochib berilgan. Asar bosh qahramonining iqroridan ko'zlangan maqsadlari badiiy jihatdan tahlil qilingan. Asar qahramonining xatti-harakatlari ichki va tashqi kuchlar ta'siri ostida qaysi tomonga o'zgarganligi falsafiy jihatdan asar voqealari misolida ikki — o'smirlik va keksalik bosqichlarida

ifodalangan. Bunday ikki bosqichli yondashuv orqali asarda nafaqat qahramonning o'z gunohlariga iqrar bo'lishi balki muallifning ham muayyan davrdagi keskin ijtimoiy o'zgarishlar sabab yuzaga kelgan "tartibsizlik" (unrest) yuzasidan iqrornomasini badiiy tahlillar natijasida ochib berish ko'zda tutilgan. Iqrornoma romanlarning postmodern jamiyatlarning o'ziga xos tomonlarini tanqidiy o'rganishdagi roli uning amaliy jihatdan dolzarbligini ko'rsatganligi sababli mazkur ilmiy ish Julian Barnesning "Oxirat hissi" asarini iqrornoma roman sifatida keng ommaga tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy Britaniya adabiyoti; Julian Barnes; "Oxirat hissi"; postmodernizm; iqrornoma roman; fragmentatsiya; xotira; tarix; zaif roviylar; refleksiv taftish; shakl; mazmun; tanqidiy iqrornoma tahlil metodi.

Abstract. The article analyses one of the notable representatives of Contemporary British literature – Julian Barnes's "The Sense of an Ending" according to the literary elements of the confessional novel. The research is dedicated to studying the features of postmodernism in the novel as the actions are narrated in the fragmentation of past memories and the non-linear mechanism of the history concept by its form. The research paper highlights the fact by comparing several scientific research that the author of the work, Julian Barnes, uses one of the main features of postmodern literature, an unreliable narrator, to describe novel's events. It is shown by using examples that the main character of the work examined his personal memories by self-reflection to restore his mental, spiritual state, and in the process of deep self-investigation, using the mechanism of history and the concepts of time, he demonstrated the inefficiency of their futile functions. In terms of content, it investigates the hero's confession of the sins he has committed throughout his life. The research considers the historical roots of traditional confessional novels and further depicts their unique poetic features from a theoretical point of view. The work thoroughly studies the important aspects of confessional novels in postmodern societies. Providing that several confessional topical issues are raised in the novel by the author; the critical confessional method is applied to analyse the novel. The article momentarily focuses on how the actions of the hero change under the influence of internal and external forces that are philosophically expressed in the example of the events of the work in two stages – through his adolescence and old age. Such a two-stage approach in the work implies not only the hero's confessions of his sins, but also the author's confession of the "unrest" caused by some critical social changes of a certain period. As far as the role of confessional novels in the critical study of the specific aspects of postmodern societies shows its practical relevance, this scientific work carried out on "The Sense of an Ending" by Julian Barnes might become a significant point in introducing this work to the general public as a confessional novel.

Keywords: Contemporary British literature; Julian Barnes; "The Sense of an Ending"; confessional novel; postmodernism; fragmentation; memory; history; unreliable narrator; self-reflection; form; content; critical confessional analysis.

Аннотация. В статье анализируется одно из ярких произведений современной британской литературы — роман Джулиана Барнса «Предчувствие конца». Он был написан на основе литературных элементов исповедального романа. В статье путем сравнения нескольких научных исследований подчеркивается тот факт, что Джулиан Барнс использует одну из главных особенностей


постмодернистской литературы — ненадежного рассказчика для описания событий романа. На примерах показано, что главный герой произведения исследовал свои личные воспоминания путем саморефлексии для восстановления своего психического состояния. Так главный герой продемонстрировал неэффективность воспоминаний и саморефлексии. Также в статье исследуется исповедь героя своих грехов, совершенных на протяжении всей своей жизни. Это обстоятельство позволяет рассматривать исторические корни традиционных исповедальных романов и раскрыть их уникальные поэтические особенности. В статье подробно исследуются важные аспекты исповедальных романов в постмодернистских обществах. Учитывая, что в романе автором поднимается ряд актуальных конфессиональных вопросов, для анализа романа применяется критически-конфессиональный метод. В статье большое внимание уделяется рассмотрению того, как меняются действия героя под влиянием внутренних и внешних сил, что философски выражено на примере событий произведения, в частности, через его юность и старость. Такая двухэтапность в произведении предполагает не только признание героем своих грехов, но и признание автором «беспорядков», вызванных некоторыми критическими социальными изменениями периода. Поскольку роль исповедальных романов заключается в критическом изучении специфических аспектов постмодернистских обществ, то он показывает свою практическую значимость; роман Джулиана Барнса «Предчувствие конца» может стать значимым феноменом в представлении широкой публике романа-исповеди.

Ключевые слова: Современная британская литература; Джулиан Барнс; «Предчувствие конца»; исповедальный роман; постмодернизм; фрагментация; память; история; ненадежный рассказчик; саморефлексия; форма; содержание; критически-конфессиональный метод.

Kirish

Julian Barns o‘zining 2011-yilda chop etilgan “Oxirat hissi” asari orqali uzoq kutilgan “Erkak yozuvchilar Buker mukofoti” (Man’s Booker Prize) sovrinini qo‘lga kiritdi. “Oxirat hissi” romani — bosh qahramon, nafaqadagi Toni Vebsterning maktab davri voqealari bilan boshlanib, uning hayoti davomida iqrор bo‘lgan hayotiy kechinmalarini xotiralari asosida hikoya qiladi. Asarga murakkab usullar bilan bilvosita yondashish uni iqrornoma asar sifatida talqin etish mumkinligini ko‘rsatadi. Garchi asar voqealari an’anaviy iqrornoma roman uslubida hikoya qilinmasa-da, asar qahramoni Toni Webster o‘zining o‘tmishidagi harakatlariga aynan haqiqat uchun kurashgan posbon sifatida nazar soladi. O‘z-o‘zini har tomonlama chetdan kuzatib, o‘zligini, “ichki menini” chuqur tahlil qiladi. Xotiralariga qaytib yoshligidagi voqealarni bir joyga jamlashga harakat qiladi va atrofida gilar bilan bo‘lgan munosabatlariga baho berishga urinadi. O‘tmishiga yana ham chuqurroq nazar tashlar ekan, voqealar jarayonida shakllangan xulosalari xolis bo‘lmaganligini va to‘laligicha asoslanmaganligini tushunib yetadi. “Oxirat hissi” asarining asl mohiyatini tushunib yetish uchun uning tahlilini keng ko‘lamda olib borilishini taqozo qiladi. Asarga uning hikoya tarzi, xotira mexanizmi, vaqt konsepsiyasi, tarixiy, falsafiy qarashlarning roli, xarakterning ruhiy-psixologik

jihatlarning tadqiqi va tanqidiy iqrornoma tahlil metodlari orqali yondashish mumkin.



1-rasm. “Oxirat hissi” romanining badiiylik mezonlari asosida tahlili

Asosiy qism

Asarning bosh qahramoni Toni Vebsterning o‘z hayotini aynan xotiralari asosida tasvirlashi uni “ishonchli” roviy (14, 256) (reliable narrator) rolikdan mahrum qiladi. “Zaif roviylar” (21) (unreliable narrator) esa postmodernizmning o‘ziga xos unsuri bo‘lib, haqiqat, tarix va katta hikoyalarga bo‘lgan ishonchsizlik kayfiyati sabab yuzaga kelgan. Roviylar “rivoya subyekti, voqealarni hikoya qilayotgan, ular kechayotgan makon va zamon, ular ishtirok etayotgan personajlarga oid tafsilotlarni yetkazib tasvir predmetiga u yoki bu tarzda munosabat bildirayotgan shaxs” (14, 256) lardir. Asarning rivoya unsuri bir necha tadqiqotchilar tomonidan turlicha o‘rganilgan bo‘lib, asarning mazmunini tushunishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

N. Heydarzadegani “Julian Barnsning “Oxirat hissi” romanida aldanchi rivoya va o‘z-o‘zini oqlashga asoslangan hikoya tarzi” (Deceptive Re-narration and Self-Justifying Narrative in Julian Barnes’ The Sense of an Ending) maqolasida asarning bosh qahramoni va asar roviysi Tonining o‘z xatti-harakatlarini oqlash uchun asardagi voqealar rivojini muayyan holatlarda qay tarzda izdan chiqarganligini tahlil qiladi (5, 153). Muallif asar qahramonining o‘z hayotini bayon qilishda kitobxonni chalg‘ituvchi hikoya (unreliable narrative) usulidan foydalanganligini chuqurroq tahlil qilib, uning o‘tmishida sodir bo‘lgan jarohatli holatlar va qaramlikka tushib qolishdan qo‘rqish hissi unda psixik himoya mexanizmining shakllanishiga sabab bo‘lganligini aniqlaydi. Asar karakteridagi aynan shu himoya mexanizmi uning shaxsiy munosabatlariga va turmush tarziga katta ta’sir o‘tkazgan degan fikrni olg‘a suradi. Tadqiqotchining fikricha, asar ekspozitsiyasida asosiy karakter tomonidan qo‘llanilgan voqealarni impressionistik hikoya qilish tartibi (impressionistic narrative) uning xotiralaridagi bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi. Ammo bizningcha, bunday hikoya tarzi aniq bir vaqtga ishora qiladi va adib Julian Barns asar

qahramonlarining hayotida sodir bo'lgan keskin voqealarning aynan bir davr ta'sirida yuzaga kelganligini bayon qiladi.

“Hikoyachini inkor qilib: Julian Barnsning “Oxirat hissi” asari” sarlavhali maqola muallifi B. Taniyanning fikricha, bu “asar har qanday ishonchli roviyning mavjudligini inkor qiladi” (17, 54). B. Tanyan asar qahramoni Tonining ishonchsiz hikoyachi sifatida harakat qilganligini va o'zining ishonchsizligiga urg'u berganligini ta'kidlaydi. Tadqiqotning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, maqola muallifi garchi Toni o'zi hikoya qilayotgan voqealarning asl guvohi o'zi bo'lsa-da, o'z zimmasiga ishonchli roviy degan mas'uliyat yukini olmasligini va shu yo'l bilan tarixiy faktlarning subyektivligini namoyish qilishini uqtiradi. Xuddi shunday fikrni C.C.M. Tseng “Xotira — yaratiladi, buziladi va tashqi omillar ta'siri ostida yoritiladi” nomli ilmiy ishida “Biz Barnsni o'qir ekanmiz, xotirlaymiz, xotirlar ekanmiz hikoya yaratamiz va ulardagi haqiqatni yashiramiz va albatta, xotirlashimiz sabab zaif ishonchsiz roviyga aylanamiz” (18, 69), degan fikrni ilgari suradi. Tadqiqotchi voqealarni xotiralar orqali hikoya qilish jarayonida xotirlovchi qahramon aslida hech qachon sodir bo'lmagan voqealarni boshidan kechirgan shaxsga aylanishini, va xotiralar o'z egasini juda oson alday olishini tahlillar asosida o'rganar ekan romanga xotiralarni butunlay izdan chiqaruvchi platforma sifatida baho beradi.

Garchi yuqoridagi bir necha o'rinlarda mualliflar asar tahlili jarayonida asarning bosh qahramoni Tonining “zaif roviy” ekanligiga muhim e'tibor qaratgan bo'lsalar-da, uning o'zini bunday tutishiga asosiy sabab uning o'z iqrornomasini kechiktirayotganligida ekanligini ko'rsata olmaydilar.

Juda ko'plab tadqiqotchilar Julian Barnsning ushbu asarini xotira, tarix va vaqt konsepsiyalari orqali tahlil qilib, asarning asl mohiyatini ochib berishda bu kabi tushunchalarning rolini ko'rsatib berishga harakat qiladilar. O. Peynel “Oxirat hissi” asariga tarix va xotira konsepsiyalarining mohiyatini o'zgacha tarzda yoritgan asar sifatida yondashadi. U o'zining “Muhim mulohazalar xususida jiddiy yondashuv. Julian Barnsning “Oxirat hissi” asarida tarix va xotira da'volari” (Serious About Being Serious: History and the Claims of Memory in Julian Barnes' The Sense of an Ending) ilmiy ishida asarga “postmodernizmning tarixni tushunishdagi inqirozini ifodalashda muhim bir urinish” (13, 1), deya baho beradi. U shuningdek, ushbu asar postmodern madaniyatlarda shajarasizlik g'oyasining ustuvorlik sabablarini tasvirlaganini va tarixni bayon qilishda adabiyotning ishonchsizlik kayfiyatini aniq ko'rsata olganini ta'kidlaydi. “Julian Barnsning “Oxirat hissi” asarida tizimsiz vaqt, xotira va tarix” (The Non-linearity of Time, Memory and History in Julian Barnes' The Sense of an Ending) deb nomlangan maqola muallifi A. Mohan ham ushbu asarni juda ko'plab tadqiqotchilar singari aynan xotira, tarix va vaqt tushunchalari orqali talqin qiladi. U bu kabi tushunchalarning bir chiziqda va tizimli ravishda, to'g'ridan-to'g'ri rivojlanmasligiga urg'u berib, Toni Vebsterning xotiralarida chuqur iz qoldirgan muayyan “psixologik jarohatlar” misolida xotiralar va tarixiy jarayonlar o'z-o'zining manipulyatsiyasiga sabab bo'lishi mumkinligini (11, 60) ta'kidlaydi va xotiraga asoslangan roviylar hikoyasida odatda haqiqatni tushunishga bo'lgan urinishlarning zoye ketishi mumkinligiga ishora qiladi.

Bu kabi qarashlarni “Julian Barnsning “Oxirat hissi” asarida xotira, haqiqat va differensiya” (Memory, Truth and Difference in Julian Barnes’ The Sense of an Ending) nomli maqola muallifi A. Rossining ilmiy xulosalarida ham kuzatish mumkin. Rossining fikricha, xotiralar asosida hikoya qilingan syujetda asl haqiqat roviylar tomonidan muayyan sabablarga ko‘ra ochiq-oydin ta’riflanmaydi. Ammo asar oxirida, albatta, yuzaga chiqadi (15, 171). Maqola muallifi asar voqealari ikki qismda rivojlanishini va asarning birinchi qismi bosh qahramonning xotiralariga asoslanganligini, qahramonning o‘zi xotiralari juda chalkash ekanligiga bir necha o‘rinlarda iqrar bo‘lganligini va shuning uchun ham asardagi voqealarni hikoya qilayotgan qahramon haqiqatni ifoda eta olmasligini ta’kidlaydi. Bunday holatda kitobxon kitobni o‘ta ziyraklik bilan o‘qisagina asar haqida aniq bir to‘xtamga kela olishi mumkin, degan xulosa paydo bo‘ladi. Bundan keyingi bosqichlarda kitobxon har qanday asarni o‘qishda ishonchsizlik pozitsiyasida turishi kerakligini uqtiradi. “Oxirat hissi” asaridagi xotira masalasi K. Mishraning “Qarilik, xotira va shaxsiyat” (“Age, Memory and Identity in Julian Barnes’ The Sense of an Ending”) maqolasida ham ko‘tarilgan bo‘lib, asar qahramoni Toni Vebstrning shaxsiyatini tiklashda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Muallifning fikricha, asarga keksa hikoyachi orqali yondashish qarish va eslash jarayonlari haqida samarali xulosalarga kelish imkonini yaratadi (10, 260). Muallif xotira konsepsiyasiga bir butun o‘zgaras, obyektiv va faktlarga asoslangan fenomen sifatida an’anaviy tarzda yondashuvlar ustunlik qilganligini aslida esa xotira qaysi tomonga qarab bursam, shu tomonga oqib ketuvchi masala sifatida qaralishi kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, insonlar odatda xotiralari asnosida o‘zlarining ijobiy xususiyatlarini ko‘rsatishga harakat qiladilar va salbiy holatlarni yashirish orqali o‘zlarini ijobiy idrok etadilar. Biroq fikrimizcha, asarga bunday yondashuv natijasida asarning badiiy-estetik xususiyatlarini e’tibordan chetda qoldirish mumkin. Masalan, Julian Barns “Oxirat hissi” asarida haqiqiy adabiyotning asl mohiyati “Asar protagonistlarining o‘z harakatlari orqali psixologik, emotsional va ijtimoiy haqiqatlarni oshkor qilishlarida” namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi (“*Real literature was about psychological, emotional and social truth as demonstrated by the actions and reflections of its protagonists;*”) (2, 14). I. Kallus ham o‘z tadqiqotlarida Julian Barnsning “Qo‘rqishga hech sabab yo‘q” (“Nothing to Be Frightened of”) va “Oxirat hissi” asarlarini “Ulkan xavotir. Julian Barnsning “Qo‘rqishga hech sabab yo‘q” va “Oxirat hissi” asarlarida xotira va tuyg‘ular ifodasi” (“There is great unrest”: Some Reflections on Emotion and Memory in Julian Barnes’s Nothing to Be Frightened of and The Sense of an Ending) deb nomlangan maqolasida muallifning ikki asarini xotira mexanizmi, tuyg‘ular ko‘lami, postmodernizm va ingliz milliy shaxsiyati o‘rtasidagi o‘zaro uzviy bog‘liqlik doirasida talqin qiladi. I. Kallusning ta’kidlashicha, “Oxirat hissi” asari bosh qahramoni “xotirjamlikni xush ko‘ruvchi” (*peaceable*) (2, 35) Toni Vesbter, o‘zi bilmagan holda o‘zining dekonstruktiv xatti-harakatlari sabab atrofida hayotida fojeaviy voqealarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi va buni faqat asar oxiridagina anglab yetadi (3, 68). Bizningcha, asar qahramoni o‘z xatosini asarning boshidayoq tushungan edi, ammo buni jiddiy qabul qilmaydi va shu yo‘l bilan o‘zini vijdon azobidan qutqaradi. Oradan qirq yil vaqt o‘tib esa xatosining oqibatini

nogiron farzandida ko'rgandagina qilmishiga iqrор bo'lishdan o'zga chora topa olmaydi. Bundan tashqari I. Kallus asarning janr xususiyatlari haqida to'xtalib, uning haqiqatda memuar janrda yozilganligiga urg'u beradi. Asardagi chalkash kechinmalar, qandaydir bir mavhum konsepsiyani tanlab, uni konkretlashtirish orqali tushunarli holatga keltirish va uni badiiylashtirish asar jarayonida tasvirlanayotgan voqealarning asl mohiyatiga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi, ya'ni memuar roman sifatida talqin qilinishiga hech bir mone'lik qila olmaydi.

Bir guruh tadqiqotchilar "Oxirat hissi" asarini bir necha falsafiy oqimlar unsurlarida talqin qiladilar. Dr. P. Maji "Julian Barnsning "Oxirat hissi" asarida eros, tanatos va ekzistensial progressiya" nomli maqolasida, roman ekzistensializm g'oyalarini ikki aspektda: hayot instinkti "Eros" va o'lim instinkti "Tanatos"da yoritib berishini ta'kidlaydi. Uning nazdida roman ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qism, asar ekspozitsiyasida qahramonlar — maktabni tugatish yoshidagi bir guruh o'smirlarning 1960-yillar Angliya manzaralarini o'zlarining eros qarashlarida kitoblarga mukkasidan ketgan, intim munosabatlarga chanqoq va anarxist sifatida namoyon etgan bo'lsalar, ikkinchi qismda faqat Toni Vebsterning qarilik yoshiga yetib, eros sabab vijdon azobida qolib ketganligini tasvirlaydi (8, 234). Ushbu muallif o'zining boshqa bir "Julian Barnsning "Oxirat hissi" asarida ekzistensial progressiya va Sizif mifi" deb nomlangan maqolasida vaqt o'tgan sari hayotning ma'nosizlashib borishi va buning tabiiy holga aylanishi haqidagi "ekzistensial progressiya" g'oyalariga kengroq to'xtalib, ya'ni insonning xotirjam hayotida absurd inqirozining rivojlanishini ta'kidlaydi (9, 27). Uning fikricha, Julian Barns "Oxirat hissi" asarida inson hayotining ma'nosizligi haqidagi nigilistik qarashlarning haqqoniyligini namoyish etadi. Absurd qahramon sifatida tanilgan Sizif asar qahramonlariga xos absurdlik xususiyatini o'zida aks ettirib, asar syujetini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

F. Ningrum asar qahramoni Tonining shaxsiyatini ochib berishda undagi egoning holatini psixologik yondashuvlar orqali o'rganadi. U "Julian Barnsning "Oxirat hissi" asarida bosh qahramon obrazida ego mexanizmining shakllanishi" ("The Main Character's Ego Development in Julian Barnes' The Sense of an Ending") tadqiqot ishida shunday xulosaga keladi: Toni obrazi asarda ikki bosqichli ego mexanizmida shakllanib boradi, ilk bosqichda orzularga to'la, o'ta diqqatli va kirishimli o'spirin sifatida namoyon bo'ladi va keyingi bosqichda aybdorlik hissi hamda afsuslanishlarga to'lib toshgan, muvaffaqiyatsiz sevgi va yo'qotishlarga yo'liqqan qariya (12, 12) sifatida gavdalanadi. Xuddi shunday tasnifdagi tadqiqot ishi B. Saed tomonidan ham olib borilgan bo'lib, u o'zining "Barnsning "Oxirat hissi" asari qahramoni Tonining psixologik xarakter sifatida tavsiflanishi" (Psychological Character Interpretation of Tony in Barnes' The Sense of an Ending) nomli maqolasida Toni obrazini Zigmund Freydning id, ego va superegodan iborat psixoanalitik nazariyasi asosida tahlil qiladi. U ham o'z ishini ikki bosqichda olib borib quyidagi qarashlarni ilgari suradi. Ilk bosqichda, yosh Toni agressiya va nizoli holatlarga moyil obraz sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi bosqichda Toni hayotidagi muammolarning asl negizi — undagi yolg'izlik va xiyonatdan cho'chib yashash, o'z-o'zini qadrlamaslik va beqarorlik sabab kelib chiqqanligini aniqlaydi (16, 22), ya'ni Julian Barnsning asarlarini Freydning psixoanalitik

nazariyasida talqin qilinganda uning asarlaridagi qahramonlar asosan zulmkor ijtimoiy muhitda ulg'ayganligi ayon bo'ladi. Shuningdek, muallifning ham o'z hayotida ongli va ongsiz ravishda mukkasidan ketgan ba'zi bir holatlardan aziyat chekkanligiga dalolat qiladi.

J. Barnsning ushbu romani turli nazariy yondashuvlar orqali tahlil va tanqid etilgan. Asarning mazmuniy unsurlari bilan bir qatorda shakliy jihatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Asar postmodernizm adabiy oqimiga xos va mos bo'lgan badiiy xususiyatlarga ega bo'lib, uning janriy belgilari "gibrid" shaklga ega degan fikrdamiz, ya'ni asarda memuar, aftobiografiya va iqornoma xususiyatlari mavjud. Nazarimizda, romanga oid ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, aynan iqornoma xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois, ushbu "bo'shliqni" to'ldirish maqsadida romandagi iqornoma janr unsurlarini tahlil qilish dolzarb, degan fikrdamiz.

J. Dalrymple "Julian Barnsning "Oxirat hissi" — sud-tibbiy memuar" nomli tadqiqot ishida asarning bosh qahramoni Tonini o'z xotiralarini tahlil qilishga kirishgan detektiv, asarni esa aynan memuar sifatida (4, 8) baholaydi. Uning ta'riflashicha, Toniga yuklatilgan vazifa — maktab davridagi do'sti Edriening o'z joniga qasd qilishi va uning vasiyatnomasidagi sirni uning o'limidan qirq yil o'tib topishga bo'lgan urinishlaridan iborat. Muallifning qayd etishicha, asarga aynan shunday yondashuv juda ko'plab muammoli holatlar haqida bir to'xtamga kelish imkonini beradi. Bunday yondashuv orqali nima sababdan Edriening to'satdan o'z joniga qasd qilishi, Tonining o'z sevgan qizi Veronika bilan aloqasini butunlay uzib ketishi va Edrian ismli o'rta yoshlardagi nogiron erkakning otasi aslida kim ekanligini bilib olishga imkon yaratadi.

Memuar roman birinchi shaxs roviylari tomonidan hikoya qilinib, avtobiografik yoki memuar asar taassurotini qoldiradi. Memuarlar odatda badiiy asar sifatida talqin qilinmaydi, lekin birinchi shaxs tomonidan hikoya qilinadigan badiiy asarlarga nisbatan qo'llaniladi. (*Memoir-novel. A kind of novel that pretends to be a true autobiography or memoir. Memoirs are supposed to be non-fictional, but the title has often been borrowed for a kind of fiction told as a first-person narrative (1, 302)*). Memuar romanlar aftobiografik asarlardan farqli o'laroq, vaqt doirasidagi ma'lum bir sahifaga chuqurroq kirib boradi.

Iqornoma romanlarda odatda biror-bir shaxsning boshqa bir shaxs huzurida potensial uyatli va xijolatli haqiqatni oshkor qilishi va shu yo'l orqali gunohlardan forig' bo'lishi, kechirilishi yoki butunlay transformatsiyaga uchrashi nazarda tutiladi. (Confessional narrative is normally taken to represent a potentially shameful truth avowed in the presence of another person which will lead to absolution, forgiveness or transformation (7, 2).) Iqornoma ikkinchi jahon urushidan keyin Amerika yozuvchilari orasida ommalashgan bo'lib, odatda o'z-o'zini badiiy ifoda etish, o'z-o'zini ijodiy ish jarayonida tanqidiy o'rganish, tabu mavzularga va tarixiy psixologik "jarohatlar" va shaxsiy nizolarning badiiy ta'siriga chuqurroq to'xtalgani bois postmodernizm bilan uzviy bog'liq hisoblanadi (23). Postmodernistlarning har qanday matnga bo'lgan skeptik munosabatlari iqornoma uslubida ham o'z aksini topganligi uchun iqornoma postmodernizmning bir shakli sifatida e'tirof etiladi. Garchi iqornomaning ildizlari Katolik iqornoma amaliyotiga borib taqalsa-da, ilk

iqornoma she'riyatda 1950-1960-yillarda paydo bo'lganligi aytiladi. Iqornoma adabiy bo'lmagan kundalik, memuar va avtobiografiya janrlaridagi kabi yozilib, ulardan farqli ravishda shaxsiy sirlarni oshkor etuvchi xarakterga ega. Binobarin avtobiografiya va iqornoma o'zaro chambarchas bog'liqdir. Iqornoma uslubida yozish avtobiografik yozishmalar ichida XIX asrning yarmidan oxirigacha bo'lgan davrda keng tarqalgan, degan fikr ham ilgari suriladi. Tanqidchi olim Piter Ekstelm haqiqiy iqornoma roman 1864-yilda Fyodor Dostoyevskiyning "Yer ostidan maktublar" deb nomlagan romanining nashr ettirilishi bilan boshlanganligini ta'kidlaydi. U romanning o'z-o'zini fosh qilishga emas, balki samimiy tarzda va aniq bir maqsadni ko'zlagan holda o'zligini tahlil qilishdan iborat ekanligiga e'tibor qaratadi. Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy iqornoma asarning ilk unsurlari shu asar orqali adabiyotga kirib kelgan.

Katolik iqornoma amaliyotida shaxsning o'tmishidagi gunohlariga iqror bo'lganligi uni go'yoki o'zini oqlanganday taassurot qoldirsa, postmodernizmning iqornoma shaklida yozilgan romanlarida uning ayblari iqror bilan yuvilib ketmaydi. Shuning uchun ham postmodern romannavilar iqornomaning tamal toshi hisoblangan subyektivlikka va haqiqatga nisbiy tushuncha sifatida qarashadi. Iqroga yuz tutgan obrazning jarohatli o'tmishi va undagi iqror bo'ladigan "men"ni tasvirlash va uni har tomonlama chuqur ifodalash ularning nazdida juda murakkab jarayon hisoblanadi.

David L. Higdon "E'tirof qilinmagan iqornomalar: Julian Barnes va Grem Svift roviylari" (Unconfessed confessions: the narrators of Graham Swift and Julian Barnes) sarlavhali tadqiqot ishida ingliz postmodern adabiyotini muayyan davr mobaynida o'rganish va tadqiq qilishda ikki ingliz adibi — Grem Svift va Julian Barnes ijodidan foydalanilishi kerakligini ta'kidlaydi (6, 175). Ikkala adib asarlarining mazmuniy va shakliy hijatdan yaqinligi ular yaratgan noan'anaviy roviy misolida namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan yangi turdagi — zaif roviy aslida anchagina bilimga ega, aql-idrokli, turli hayotiy jarohatlarni boshidan kechirgan yoinki shu kabi kechinmalarga sabab bo'lgan jarohatlarni bilvosita yo'llar, turli niqoblar va "zaxirada"gi usullar bilan ko'rsatishga uringan qahramonlardir. Bu kabi qahramonlarni bir necha postmodern ingliz adiblarining asarlarida kuzatish mumkin. Masalan birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadigan Kazuo Isiguroning "Kun qoldiqlari", Martin Emisning "Pullar: O'z joniga qasd qilish haqida eslatma" va hatto Muriel Sparkning uchinchi shaxs tilidan hikoya qilinadigan "Miss Jan Brodining muvaffaqiyati" asarlari aynan shunday ishonchsiz hikoyachi qahramonlarni gavdalantiradi.

Iqornoma romanlarining tanqidiy tahlil usullari (20, 6) ta'rif etilgan ilmiy monografiyada iqornoma asarlarni o'rganishning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, birinchi navbatda (1) adabiy asar muallifining asar jarayonidagi iqornomasini izlab topib, uni tadqiq qilishni (locates and analyzes authorial confession) nazarda tutsa, keyingi bosqichda (2) qahramonning iqornomasini (character confession) chuqurroq o'rganishni talab qiladi. (3) Har ikkala tomon (muallif va qahramon)ning tinglovchi va e'tirofning subyekti sifatidagi o'rnini inobatga olib, tanqidning faol ishtirokchisi sifatida qaralishi (the need for criticism's active participation

with each as both the hearer and reciprocating subject of those confessions) har tomonlama mukammal tanqidiy iqrornoma metodi asosida ish yuritishning mazmunini o'zida aks ettiradi. Tanqidiy iqrornoma tahlili asardagi umumiy badiiy unsurlarni tadqiq qilishda quyidagi muammoli savollar orqali yondashishni talab qiladi: Qanday omillar muayyan xatti-harakatlarni bajarayotgan shaxsning axloq me'yorlariga mosligini yoki g'ayriaxloqiy doirada ekanligini belgilaydi? Aynan kimga yon bosish maqsadga muvofiq va kim tanqid ostiga olinishi kerak? O'z o'rnida qanday tanqidiy xulosalariga kelinishidan qat'iy nazar asarni mutolaa qilayotgan kitobxon o'z qarashlarida adabiyotning borliq va undagi mavjud qonuniyatlarni tushunishdagi roli haqidagi qarashlarini ifoda etadi.

“Buqalamun romannavis (23)” deya baholangan Julian Barns o'zining “Oxirat hissi” romanini shu qadar mahorat bilan yozadiki, kitobxonda asarning oxirigacha qahramonning aybsizligiga va samimiyligiga hech bir shubha paydo bo'lmaydi. Birinchi shaxs tomonidan hikoya qilingan memuar roman voqealari shu obrazning xotiralarini asnosida o'z-o'zini refleksiv-badiiy ifoda etish orqali ochib beriladi. “Badiiy obraz o'zini kitoblardagidek tutmasa, badiiy asar yaratishga loyiq vaziyatni hosil qilishdan maqsad nima (2, 15)” (What was the point of having a situation worthy of fiction if the protagonist didn't behave as he would have done in a book), deya kitobxonni so'roqqa tutgan qahramon o'zini refleksiv metaproza uslubida namoyon etadi. Eng asosiysi, *xotira, tarix, falsafiy qarashlar va oliy darajadagi o'z joniga qasd qilish mahorati* (“*First-class degree, first-class suicide* (2, 64)”) haqidagi uydirmalar bilan kitobxonni asar oxirigacha “aldaydi”. “*Hammasi maktabda boshlangan edi* (2, 10)” deydi u, lekin “*hammasi*” deganda nimani nazarda tutganligini asarning oxirigacha oshkor qilmaydi. Toni Webster, avvalo, o'z xotiralariga qayta-qayta va chuqurroq nazar solib, garchi bunga unchalik oshiqmayotgan bo'lsa-da, o'tmishida sodir bo'lgan voqealarning xotiralariga mixlanib qolganligining asl sababini tushunishga va tushuntirishga harakat qiladi. Bir necha o'rinlarda xotiralarining qay darajada ishonchliligiga urg'u beradi. “Ammo mening xotiram borgan sari aniq ma'lumotlarni arzimagan farq bilan qaytaradigan mexanizmga aylanib qolgan edi (2, 35)” (“*But my memory has increasingly become a mechanism which reiterates apparently truthful data with little variation.*”), deya o'zining ishonchliligiga kitobxonni ishontirishga urinadi. Biroz muddat o'tgach esa xotiralarining qay tarzda izdan chiqayotganligiga iqror bo'ladi. Yillar o'tib qarigan sari hamma narsa murakkablashib, teranligini yo'qotib borishini tan oladi. “Keyinchalik... keyinchalik faqat noaniqliklar, ziddiyatlar, chekinishlar va soxta xotiralargina qoladi. Avvallari (yigirma yoshdalikda) qisqa muddatli hayotni butunligicha, to'laligicha yodda saqlash imkoni bor edi. Ammo yillar o'tib, xotira uzib olingan mato bo'lagiga va yamoqqa aylanadi (2, 51)” (“*Later ... later there is more uncertainty, more overlapping, more backtracking, more false memories. Back then, you can remember your short life in its entirety. Later, the memory becomes a thing of shreds and patches*). Bu o'rinda muallifning apoziopez murakkab stilistik vositasidan foydalanib, asardagi murakkab jarayon — haqiqatni yuzaga chiqarish va gunohlariga iqror bo'lish jarayonini sukut saqlash orqali kechiktirishga erishganini ko'rish mumkin. “Bir narsani qayta va qayta eslashdan nima naf? Axir siz ham bir marta og'zi kuygan odamning ikkinchi marta “og'zi

kuyishi” mumkinligi haqidagi qoidani bilasiz, to’g’rimi? Ammo bu gal men o’z-o’zimga qarshi chiqayotganga o’xshayman ... nima? An’analarga sodiqlik, tasavvur yetishmasligi, hafsalasi pir bo’lishini kutib yashash? Qolaversa, hali tishlarim o’zimniki. (*“Why go through that stuff all over again? Don’t you know the rule: once bitten, twice bitten? But now, I found myself in revolt against my own ... what? Conventionality, lack of imagination, expectation of disappointment? Also, I thought, I still have my own teeth (2, 56)”*).

Xuddi shunday juda ko’p o’rinlarda sukut saqlab, asl haqiqatni yashirishga urinadi, apoziopez stilistik vositasidan mahorat bilan foydalanadi va kitobxonni chalg’itishga harakat qiladi. Qilmishlariga iqrar bo’ladi, do’sti Edrienning o’z joniga qasd qilishiga sabab bo’lgan xatni yozgani, sevgilisi Veronikani xiyonatda ayblab adashgani, uning otasi va akasini mazax qilgani — bularning hammasiga javobgar ekanligini tan oladi. Ammo asl haqiqatni gunohlarining mevasi bo’lgan — nogiron farzandi oldidagi aybini tan olmaydi. Iqornoma roman — voqealarning rivojlanishida va qahramonning g’oyaviy taraqqiy etishida kitobxon qarashlarining rivoji va aksidir. (*“A Confessional Novel is a novel wherein the developing story or developing character is representative and reflective of the ongoing development of the reader (19, 5)”*) Kitobxon qahramonni nimada aybdor deb bilsa, u faqat shu jihatdan aybdor, qahramon gunohlarini doston qilishi shart emas. Kitobxon asarni o’zi xohlagan tomonga burib o’qish qobiliyatiga ega. Unga kerakli imkon yaratilishi kerak. Hatto bir o’rinda voqealarni hikoya qilayotgan birinchi shaxs, roviylikni kitobxon zimmasiga yuklab qo’yadi. *“Siz, albatta, buni o’zingiz uchun qilyapsiz. Siz o’sha yakunlovchi xotirani qoldirib ketishni juda qattiq istayapsiz va uni shu tarzda hammaga yoqadigan xotiraga aylantirmoqchisiz. Siz haqingizda faqat yaxshi fikrda bo’lishlarini xohlayapsiz, axir sizning samolyotda uchishingiz muyulishdagi do’konga borib kelishdan xavfsizroq bo’lmay qolishi mumkin (2, 52)”* deydi u. (*“You’re doing it for yourself, of course. You’re wanting to leave that final memory, and make it a pleasant one. You want to be well thought of — in case your plane turns out to be the one that’s less safe than walking to the corner shop”*) Xuddi shu yo’l bilan kitobxonni o’ziga suhbatdosh qilib oladi va birga iqrar bo’lishga undaydi.

Boshqa holatlarda esa xotiralarining kuchini namoyish etishda tarixdan ham niqob sifatida foydalanadi. *“Tarix bu tarixiy asoslashda kerakli hujjatlar yetishmay qolgan vaziyatda xotiraning qusurlariga tayanib qolishdan hosil bo’lgan ishonchdir (2, 15)”* (*“History is that certainty produced at the point where the imperfections of memory meet the inadequacies of documentation”*), deya tarixiy faktlarga ishonib adashganlarni oqlash mumkin bo’lgan sharoitda xotiralariga ishonib haqiqatni hikoya qilayotganlarni nimada ayblash mumkinligini tahlil qilishga undaydi. Qonun, jamiyat va din tushuntirib berishga qodir bo’lmagan narsalarni, masalan Edrienning o’z joniga qasd qilish masalasini falsafaning eng katta muammosi (*“suicide was the only true philosophical question”* — quoted from Camus) sifatida ta’riflab, uning o’limida o’zining hech qanday aybi yo’qligiga ishonitirishga urinadi. Ma’lum muddat Edrienni Veronikani homilador qilib, aybiga iqrar bo’lishdan qo’rqib, o’z joniga qasd qilganligiga kitobxonni ishonitiradi. *“Oliy darajadagi maqom, oliy darajada o’z joniga qasd qilish — Aleks va men shunday xulosaga keldik (2, 64)”*

(*“First-class degree, first-class suicide,” Alex and I had agreed. What sort of Adrian did I have instead? One who had got his girlfriend pregnant, been unable to face the consequences, and had “taken the easy way out”, as they used to put it”*) deya o‘zining iqrornomasini qirq yilga kechiktiradi. Xotiralar aslida *“biz unutdik deb o‘ylagan o‘ylar (2, 34)”* (*“... memory is what we thought we’d forgotten*) bo‘lishi mumkinligiga o‘zini ishontirgandagina, o‘zining aniq bir nuqtada iqrornomaga yaqin qolganligini tushunib yetadi. Asar jarayonida o‘zini o‘zi fosh qilib, o‘z tuyg‘ulariga iqror bo‘ladi: *“Yo‘q, ayni damda men o‘zimda sharmandalik yoki aybdorlik hissini tuymadim, hayotimda oldin hech qachon his qilmagan va bu kabi sharmandalik va aybdorlik tuyg‘ularidan kuchliroq narsani sezdim. Bu vijdon azobi edi. Bu juda murakkab, g‘alayonli va asl holatidagi tuyg‘u edi (2, 49)”* (*And no, it wasn’t shame I now felt, or guilt, but something rarer in my life and stronger than both: remorse. A feeling which is more complicated, curdled, and primeval.*)

Asarning xotiralar asnosida birinchi shaxs roviy tomonidan rivoya qilinishi undagi voqealar rivoji, ya‘ni hikoya qilishda qanday voqealarning tanlanishi va ularning qay tarzda hikoya qilinishi butunlay roviy ixtiyoriga berib qo‘yiladi. Shuning uchun Toni Vebster voqealarni hikoya qilish jarayonida eng muhim voqeani an‘anaviy iqrornomadagi kabi o‘z o‘rnida kitobxon kutganidek oshkor qilmaydi. Ammo har gal xotiralari shu voqeaga borib taqalganda, uni tasvirlashga va haqiqatni oshkor qilmaslikka urinishi uning aynan shu voqea ekanligiga ishora qiladi. Roviylar asarning ilk satrlaridayoq xotiralarini fragment holatida taqdim qilib aynan qaysi voqeaga ko‘proq e‘tibor qaratish kerakligiga va asarni o‘qish jarayonida aynan shu voqealarning mohiyatini va ularning ta‘sirini tahlil qilishga undaydi.

Roviylar o‘zining iqrornomasini quyidagi so‘zlar bilan yakunlaydi. *“Bilaman, endi hech narsani o‘zgartira olmayman, to‘g‘rilay ham olmayman”* (*“I knew I couldn’t change, or mend, anything now (2, 68)”*). Chunki aqli noqis nogiron farzand bunga yaqqol misol. Balki hammasini o‘z holicha tan olish, iqror bo‘la olish ham bir jasoratdir, shubhasiz, har bir kitobxon bunday iqrornomadan shunday xulosaga kelsa, ajabmas.

Asarning mazmuniy, g‘oyaviy va falsafiy shakllaridan kelib chiqib, uni iqrornoma roman sifatida talqin qilinishi undagi muallifning kitobxoniga yo‘llagan xabarini yetkazishda muhim rol o‘ynaydi va keng kitobxonlar orasida o‘ziga xos asar sifatida yoritilishini ta‘minlaydi. Asar tanqidiy iqrornoma tahlilida ko‘rsatilganidek, ikki ovozda yoritiladi. Biri asar qahramoni Toni iqrornomasi bo‘lsa, ikkinchisi muallif — Barnsning ovozidir. Tonining iqrornomasi bu uning butun hayoti davomida bilib-bilmay yo‘l qo‘ygan xatolari va gunohlari bo‘lsa, ya‘ni qadrdon do‘sti Edrienning o‘z joniga qasd qilishiga sabab bo‘lgan xatni yozganligi, sevgan qizi Veronikaning onasi bilan ishqiy munosabatlaridan nogiron farzandning tug‘ilishi va Veronikaning bunday sharmandali holatlar sabab o‘zining shaxsiy hayotini qura olmaganligida aks etsa, muallifning iqrori shunday gunohlarning sababchisi bo‘lgan 1960-yillardagi jinsiy erkinlik haqidagi g‘oyalar ortidan kelib chiqqan ijtimoiy tartibsizlik edi.

Shubhasiz, asardagi *“intim munosabatlarga tashna”* (sex-hungry) obrazlar 1960-yillarda Angliyada boshlangan jinsiy erkinlik inqilobining ayni o‘sha damdagi va yillar o‘tib uning ta‘siri ostidagi qurboni bo‘lishdi.

Asar yozilgan vaqtdan qirq yil oldingi voqealarni xotiralar asnosida hikoya qiladi. Demakki, asardagi obrazlar — bir guruh o'smirlar aynan 1960-yillarda voyaga yetayotgan avlod bo'lib, shu davrda sodir bo'layotgan keskin ijtimoiy va estetik qarashlar ta'siri ostida ulg'ayishgan edi. Roviyning "hammasi" aynan maktabda boshlangan edi, deya hikoyasini boshlashi uning aynan 60-yillarga ishora qilayotganini ko'rsatadi ("... *these words had a local, textual meaning, specific to forty years ago* (2, 45)") va uni "ulkan tartibsizlik" ("*unrest*") davri deya baholaydi (2, 11). Ilk o'rinda, tarix darsini yodga olib, unda tarix fani o'qituvchisining o'quvchilarga ingliz qiroli Genri sakkizinchi haqida o'qib kelish vazifasini topshirganini va 1960-yillarni aynan uning hukmronlik davridagi "ulkan tartibsizlikka" qiyoslanganini quyidagicha tasvirlaydi:

— Xo'sh, meni sizlardan Genri VIIIning hukmronligi haqida dastlabki ma'lumotlarni o'qib kelishingiz kerakligini so'raganimni eslaysizmi? ... Kim bu davrning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bera oladi? ... Balki Marshall gapirib berar. Qani Marshal Genri VIIIning hukmronlik davrini qanday baholaysan?

— Tartibsizlik bo'lgan, janob. (butun sinfxonada tutib qolib bo'lmaydigan kulgi ko'tarildi... Ustoz Hant ham o'zini kulgidan deyarli to'xtata olmadi.)

— Ehtimol, bizga buning ma'nosini batafsil tushuntirib berarsan?

— ("... Marshall sekin bosh silkidi, xiyol uzoqroq o'ylab va xavfdan xoli emasligini tushundi.) Menimcha bu — juda katta tartibsizlik bo'lgan, janob.

(“— *Now, you'll remember that I asked you to do some preliminary reading about the reign of Henry VIII. ... Who might like to offer a characterisation of the age?... Well, Marshall, perhaps. How would you describe Henry VIII's reign?...*

— *There was unrest, sir. ("An outbreak of barely controlled smirking; Hunt himself almost smiled.)*

— *Would you, perhaps, care to elaborate?*

(“... Marshall nodded slow assent, thought a little longer, and decided it was no time for caution”.)

— *I'd say there was great unrest, sir.”)*

Xulosa

Xullas, asar davomida Tonida uyg'ongan aybdorlik va mas'uliyat hissi uni o'zining xatti-harakatlarini chuqurroq mushohada etishga chorladi. Uning nafaqat ixtiyoriy, balki bilvosita yo'llar bilan o'zgaralar hayotidagi keskin burilishlarga sabab bo'lganligini batamom anglab yetishiga sabab bo'ldi. Haqiqatni ochishga bo'lgan urinishlari sabab xotiralarining xolisligini va voqealar negizidagi asl haqiqatni sarhisob qildi. Haqiqatga bo'lgan intilishi — o'z harakatlariga va ularning oqibatlariga butunlay javobgarlikni o'z bo'yniga olishi uning iqronomasi uchun ilk qadam bo'lib xizmat qildi. O'z ichki "men"ini introspektiv tahlil qilib, hayotidagi yo'l qo'ygan xatolari, atrofida gilar bilan munosabatlaridagi va shaxsiy qarashlaridagi kamchiliklarini tushunib yetdi. O'zining shaxsiy qarashlarini va jamiyatdagi shaxsiy o'rinini taftish qilib o'zining ijtimoiy shaxs sifatidagi o'rnini qayta tiklay oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar / References

1. Baldick C. The Oxford Dictionary of Literary Terms, US: OUP Oxford, 2015, 479 p.
2. Barnes J. The Sense of an Ending, US: Vintage, 2012, 168 p.
3. Callus I. "There is great unrest": Some Reflections on Emotion and Memory in Julian Barnes's Nothing to Be Frightened of and The Sense of an Ending, Prague Journal of English Studies, Volume 1, No. 1, 2012, pp. 55-70
4. Dalrymple J. The Sense of an Ending by Julian Barnes: a 'forensic memoir'. Hal open science, 2014, pp. 1–14, URL: <https://hal.science/hal-01885429/document>
5. Heydarzadegan N. Deceptive Re-narration and Self-Justifying Narrative in Julian Barnes' The Sense of an Ending. Journal of Narrative and Language Studies. Volume 7, No.13, 2019, pp. 152–161.
6. Higdon L. D. Unconfessed confessions: the narrators of Graham Swift and Julian Barnes. In: Acheson, James (ed.) The British and Irish Novel Since 1960, NY.: St. Martin's Press, 1991, pp. 174–191.
7. Hill. R.R. The Never Ending Confession. The Confessional Mode in two novels by Mempo Giardinelli. Thesis, Brigham: Young University, 2015, 70 p.
8. Maji Dr. P. Eros, Thanatos and Existential Progression in Julian Barnes' the Sense of an Ending the Criterion: An International Journal in English. Volume 9, Issue-II, 2018, pp. 232–238.
9. Maji Dr. P. Existential Progression and the Motive of Sisyphus in Julian Barnes' the Sense of an Ending. Epitome: International Journal of Multidisciplinary Research. Volume 4, Issue 5, 2018. 25-31.
10. Mishra K. Age, Memory and Identity in Julian Barnes' the Sense of an Ending. The Criterion: An International Journal in English. Volume 12, Issue I, 2021. 260-266.
11. Mohan A. The Non-linearity of Time, Memory and History in Julian Barnes' The Sense of an Ending. Quest Journals. Journal of Research in Humanities and Social Science, Volume 6, Issue 12, 2018, pp. 59–62.
12. Ningrum F. The Main Character's Ego Development in Julian Barnes' The Sense of an Ending. Thesis, Nigeria, 2022, 66 p.
13. Paynel O. Serious about being serious: History and the claims of memory in Julian Barnes' the Sense of an Ending. Stet an online postgraduate research journal. King's College London. 2014. 1-17
14. Quronov D., Z. Mamajonov., M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati, Tashkent, 2010.
15. Rossi A. Memory, Truth and Differance in Julian Barnes's The Sense of an Ending. Iperstoria — Testi Letterature Linguaggi. Issue 8, 2016, pp. 171-184.
16. Saeed B. Psychological Character Interpretation of Tony in Barnes' the Sense of an Ending. International Journal of English Language Studies. No. 2, 2022, pp. 22-35. DOI: [10.32996/ijels.2022.4.2.3](https://doi.org/10.32996/ijels.2022.4.2.3)
17. Taniyan B. Denying the Narrator: Julian Barnes's The Sense of an Ending. English Studies: New Perspectives. Cambridge Scholars Publishing, UK, 2015, 373 p.

18. Tseng C.C.M. *Memory Made, Hacked, and Outsourced. How the 21st Century Anglophone Novels Remember and Forget*, Taiwan: Palgrave Macmillan, 2023, 152 p.
19. Watson K.M. *Philosophy and the confessional novel: A critical confession analysis*, Doctor's thesis, Purdue: Purdue University Graduate School, 2012, 229 p.
20. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Roviy>
21. https://en.wikipedia.org/wiki/Confessional_writing#:~:text=Confessional%20writing%20usually%20involves%20the%20divulging%20and%20discussion%20of%20'shameful,memoir%2C%20and%20also%20epistolar%20narratives
22. archive.nytimes.com/www.nytimes.com/books/01/02/25/specials/barnes-chameleon.html